

MAXTUMQULI IJODI TARJIMONLAR TALQINIDA

Yarmuxammat Madaliyev,

M.Awezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti Filologiya fakulteti Qozoq tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, Qozog‘iston Respublikasi, Olmota shahri

Yulduz Nurjanova,

Berdaq nomidagi QODU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolamizda Maxtumquli ijodini o‘rgangan olimlar, tarjima qilgan tarjimonlar va ularning tarjimonlik mahorati so‘z etilgan. Tarjimonlarning ayrim she‘rlaridan namunalar keltirilgan va tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: badiiy tarjima, lirika, millatlararo do‘stlik aloqalari, milliy iftixor.

Firog‘iy taxallusi bilan xalqona, baxshiyona ohangda she‘rlar yozgan Maxtumquli bugungi kunda jahon adabiyotida o‘zining munosib o‘rniga ega. Uning didaktik she‘rlari xalq diliga juda yaqin bo‘lib, sof muhabbat, vafodorlik, do‘stlik, mehr-oqibat, qadru qimmat, insoniylik, mardlik, vatanparvarlik tuyg‘ularini tarannum etuvchi lirikasi o‘zining xalqchilligi bilan alohida ajralib turadi.

XVIII asr turkman mumtoz shoiri Maxtumquli adabiy merosi nafaqat turkman xalqi, balki jahon madaniyatida o‘ziga xos halqani tashkil etadi. Milliy tasvir o‘lchamini umuminsoniy qadriyat darajasiga ko‘targan ijodkor adabiy talqini yosh avlod dunyoqarashiga milliy g‘urur, milliy iftixor va milliy o‘zlik tuyg‘ularini singdirish, milliy mustaqillik ma‘naviyatini mustahkamlash, insoniylik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. SHu o‘rinda, shoir she‘rlari soddaligi va ravonligi, teranligi va jozibaliligi bilan ajralib turishini ta’kidlash joiz.

Maxtumquli ijodini bir qancha olimlar tomonidan ham o‘rganildi, ilmiy tadqiqotlar olib borildi. O‘zbekistonda Maxtumqulining hayoti va ijodi bo‘yicha tadqiqotlar olib borishda olim K.Quramboev xizmatlari beqiyos. “O‘zbek – turkman adabiy aloqalari” 1978, “Maxtumquli she‘riyati O‘zbekistonda” (1984), “Ko‘ngil bermish so‘zimga” (1991), “Adabiy ta’sirdan ijobiy o‘ziga xoslikka” (2007), “Adabiy jarayon, ijod mas’uliyati, adabiy aloqalar” (2009), “Tarjima va tarjimon mas’uliyati” (2007) kabi asarlar K.Quramboevning Maxtumquli ijodi hamda o‘zbek adabiyoti masalalarini yaxlitlikda o‘rganishga qaratilgan. Bu tadqiqotlarda Maxtumqulining hayoti va ijodi, shoir asarlarining o‘zbek, qoraqalpoq tillariga tarjimasi masalalari, o‘zbek-turkman adabiy aloqalari masalalarida Maxtumquli o‘rni va xizmati kabi muammolar o‘rganiladi.

Izlanishlar orasida “Maxtumquli – ilhom chashmasi” nomli monografiyada shoir ijodi har xil mavzu katlamlariga bo‘lib o‘rganiladi. Xususan, taniqli turkman olimi Ahmed Mammedov 2014 yilda Turkmaniston Fanlar akademiyasining Milliy qo‘lyozmalar instituti tarafidan Maxtumquli ijodining xalqaro darajada o‘rganilishi masalalariga bag‘ishlab tayyorlangan “Maxtumquli – ilhom chashmasi“ nomli materiallar to‘plamida kitobning muhim jihatlarini ta’kidlab o‘tadi. Akademik B.Nazarovning “Maxtumqulining zamonaviyligi” (O‘zbek tili va adabiyoti”, Toshkent, 2008) maqolasida Maxtumqulining nafaqat turkman xalqiga, uning mag‘zi mazmunga to‘la asarlari bani bashar uchun ma’naviy oziq bo‘la olishi ilmiy asosda tavsiflanadi.

Darhaqiqat, shoir ijodi nafaqat olimlarimiz tomonidan balkim tarjimonlar tomonidan iliq kutib olindi. E.Ochilov Maxtumquli ijodining mohir tarjimoni sifatida namoyon bo‘ldi. Bu haqda muallif: «o‘zimiz ham shoirning 45 ta she‘rini tarjima qilib, «Dunyo o‘tib boradir» nomi bilan «Sharq mumtoz she‘riyati durdonalari» ruknida e‘lon qilganligini aytadi. Qizig‘i shundaki, O‘zbekistondagi eng yirik va nufuzli nashriyot – «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan 2007 yili besh ming nusxada nashr etilgan. So‘ng tarjimalarimizyana davom ettirilib, Maxtumqulining 700 dan ziyod she‘rini tarjima qilingan. Ulardan guldasta sifatida 150 ta she‘rdan iborat «Ustozingdan ayrilma» to‘plamini chop etilgan (Toshkent, 2012). Shuningdek, mutafakkir shoirning odob-axloq yo‘nalishidagi pand-nasihatga yo‘g‘rilgan she‘r va misralari asosida ilk marta uning «Hikmatlar» to‘plami ostida nashr qilingan (Toshkent, 2013). Shoir tavalludining 290 yilligi munosabati bilan uning 400 ga yaqin she‘rlarini o‘z ichiga olgan «Asarlar» to‘plami ham bosilib chiqqan (2013)».

Bundan tashqari, mustaqillik davrida Maxtumquli she‘riyati yangi tarjimalari yuzaga keldi. Jumladan, Muzaffar Ahmad Maxtumquli etmishga yaqin she‘rlarini o‘zbek tiliga tarjima qilib, 1995 yili «Saylanma» nomi bilan, Olim To‘raev qirq beshga yaqin she‘rlari «Yor, jamoling ko‘rgali» nomi bilan nashrdan chiqaradi. Bu xususda E.Ochilov muhim malumotlarni keltiradi. Yuqoridagilarni umumlashtirish asnosida shuni aytish joiz, milliy istiqlol davrida O‘zbekistonda Maxtumquli hayoti va ijodini o‘rganish hamda ommalashtirish yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu jarayon o‘zbek-turkman qardoshligi munosabatlarida shoir adabiy merosi salmoqli o‘rin egallashi, ikki xalq madaniyatlarini bir-biriga yaqinlashtirishda bu solnoma muayyan vazifalar bajarishini dalolatlaydi va jahon tamaddunida badiiy so‘z san‘atiga ehtirom amaliy ifodasi sifatida tushunish mumkin. O‘z navbatida, el-yurt g‘amini kuylagan, zahmatkash xalq ko‘hna dardlarini tarannum etgan shoir adabiy meros joriy kunda ham yashashda davom etadi.

Pand-nasihati Maxtumduli ijodining muhim bir yoʻnalishi boʻlib, shoirning bizgacha etib kelgan poetik merosi oʻsha davr adabiy hayotining hamma mavzularini qamrab oladi. Zotan, Maxtumduli ijodining xalqchilik kasb etib, ravnaq topib borishida Sharq lirikasi anʼanalari bilan bir qatorda turkiy qoʻshiqlar, folklor murabballari shaklidagi ijod namunalarning oʻrni katta boʻldi.

Maxtumduli ijodida Ahmad Yassaviy pandnomalari uslubining izlari yaqqol koʻzga tashlanib turadiki, odamning hayotda oʻz maqomini idrok qilishi, ota-bobolarning hamma yaxshi xislatlarini oʻzlashtira borishi va aksincha takabburlik, manmanlik, dilozorlik, mol-davlatga hirs qoʻyish, nafs kuyiga kirib ketish kabi illatlarni engish gʻoyalari, pandnomalarning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Quramboev K. Maxtumduli – ilhom chashmasi. Toshkent. Tafakkur, 2012.
2. Nazarov B. Maxtumdulining zamonaviyligi. Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali. Toshkent, 2008, №5.
3. Ochilov E. Maxtumduli ijodi Oʻzbekistonda. «Oʻzbek tili va adabiyoti» jurnali. Toshkent, 2008.
4. Maxtumduli. // «Tamaddun nuri» ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-maʼrifiy, adabiy-badiiy jurnal, 2017 yil.
5. Nurjanova Yulduz Shukrullova. "xalq ogʻzaki ijodi janrlarini oʻqitishda nazariy maʼlumotlardan foydalanish: Nurjanova Yulduz Shukrullayevna, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasida oʻqituvchisi." *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 6 (2021): 48-53.
6. Baymenova, Kamshat. "formation of students'ability to work with scientific text on the basis of pisa assignments." *Gospodarka i Innowacje*. 42 (2023): 105-109.
7. Doshanova, G. "MAHMOUD TOIR FOURS TRADITIONS AND UPDATES." *Miasto Przyszłości* 35 (2023): 244-246.
8. Berdibayev, Ulugʻbek. "Tradition and originality in the context of Turkish literature (On the example of the creations ofabdulla oripov and ibroyim yusupov)." *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH* 10.4 (2021): 266-270.